

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

7-son (5-jild)
2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 7 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Норов Шухрат Сувонович</i> МОЛОДЁЖНЫЕ ОРГАНИЗАЦИИ В ИНТЕГРАЦИИ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ НА ПРИМЕРЕ ЗАРАФШАНСКОГО ОАЗИСА	9-14
<i>Nazirxo'jayev Muhammadalixo'ja Qosimxo'jayevich</i> 1945-1950-YILLARDA ANDIJON VA FARG'ONA VILOYATLARIDA HARBIY ASIRLARINING QURILISH VA XALQ XO'JALIGI ISHLARIGA JALB ETILISHI TARIXIDAN	15-22
<i>Xujaniyazov Uktam Eshbaevich</i> QORAQALPOG'ISTON DAVRIY MATBUOTINING MUSTAQILLIK YILLARIDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (1991-2018).....	23-27
<i>Toirjonova Ruxsora Shaxobiddinovna</i> SOVET DAVRIDA VAQF MULKLARI TAQDIRI VA DINIY MUASSASALARGA BO'LGAN MUNOSABAT	28-31
<i>Aytmuratova Janilsin, Quvvatova Charos</i> THE ROLE OF THE JADIDS IN THE DEVELOPMENT OF NATIONAL PUBLIC EDUCATION, LITERATURE, AND ART	32-36
<i>Rahimova Zeboxon O'ktam qizi</i> XORAZM HUDUDIDAGI TARIXIY QAL'ALAR REKONSTRUKSIYASIDA 3D MODELLASHTIRISH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	37-42
<i>Aytmuratov Jalgas, Doshniyazov Raxat</i> QORAQALPOG'ISTON SAN'ATINING TARAQQIYOTIDA TASVIRIY SAN'ATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH MANBALARI	43-49

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Raximbayev Akmal Azatboyevich</i> O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA SANOATNI RIVOJLANISHI VA AGLOMERATSIYALARNI SHAKLLANISH JARAYONLARI	50-57
<i>Amonov Mehridin Oromiddinovich</i> TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISHDAGI RAHBARLIK USLUBLARI	58-63
<i>Shukurov Ikrom Abdurashitovich</i> TURIZM SOHASINING RIVOJLANISHIDA TURISTIK FIRMA VA TASHKILOTLAR TOMONIDAN SOTILGAN SAYYOHLIK YO'LLANMALARINING TA'SIRINI TAHLIL ETISH	64-69

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Karimbayeva Salomatxon, Mirzaxmedov Abdurashid</i> IJTIMOIY TOLERANTLIKKKA TA'RIF	70-74
<i>Qayumova Aziza Toshmuradovna</i> IBN XALDUN IQLIMLAR NAZARIYASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI.....	75-78
<i>Bekpo'latov Ulug'bek Rahmatulla o'g'li</i> SIMMETRIYA VA ASIMMETRIYA BIRLIGI KONTEKSTIDA "O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASIDAGI G'OYALARNING IJTIMOIIY FALSAFIY TAHLILI	79-85

<i>Kubatov Shahobjon</i> 2016-2024-YILLARDA O'ZBEK JAMIYATI TAFAKKURIDA DAVLATNING IJTIMOIIY FUNKSIYALARI TAHLILI	86-96
<i>Abduraxmonov Is'haq, Jurayeva Rayxona</i> YOSHLARDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI	97-100
<i>Raximova Yulduz Dilmurod qizi</i> ISLOM FALSAFASIDA INSON TALQINI	101-104
<i>Achilov Firdavs Nasritdin o'g'li</i> YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI MA'NAVIIY QIYOFASINI YUKSALTIRISHDA MAHMUDXO'JA BEHBUDIIY TA'LIMOTINING AHAMIYATI	105-108
<i>Mansurov Abdulaziz Akbarjonovich</i> DEMOGRAFIK JARAYONLAR, MIGRATSIYA VA URBANIZATSIYANING MADANIYATLARARO DIALOGGA TA'SIRI.....	109-113
<i>Хамдамов Бехзод Хабибович</i> ФИЛОСОФИЯ ЛИЧНОСТИ И СУДЬБЫ В «БОБУРНАМЕ»	114-118

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Mamadaliyeva Naibaxon, Mamadaliyeva Odinaxon</i> DAVLAT TILIDA SIFAT VA SERTIFIKATLASH ATAMALARI IZOHLI LUG'ATINI YARATISH ZARURATI	119-125
<i>Алиева Эльвина, Расулова Дилбар</i> ИЗУЧЕНИЕ КОНВЕРГЕНЦИИ ЯЗЫКОВЫХ СРЕДСТВ НА МАТЕРИАЛЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПРОЗАИЧЕСКОГО ТЕКСТА	126-134
<i>Eshboyev Qahramon Bakir o'g'li</i> LEKSIKOGRAFIYADA DARAJALANISH QONUNIYATINING ILMIY-AMALIY AHAMIYATI	135-144
<i>Qodirova Barno Ibragimovna</i> O'ZBEK FILOLOGIK TERMINOLOGIYASIDA -IZM QO'SHIMCHASINING ETIMOLOGIK VA MORFOLOGIK TAHLILI	145-149
<i>Tursinbaev Ilham Po'latbay o'g'li</i> BOLALAR ADABIYOTIDA POEMANING JANRIY XUSUSIYATLARI	150-154
<i>Abdurahmonova Farangiz, Xudoymurodova Xurriyat</i> "SAG'RI TERI TILSIMI" FALSAFIY ROMANIDA BOSH QAHRAMON TAQDIRINING BADIY TALQINI	155-158

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Yunusov Xaydarali Muratovich</i> YEVROPA ITTIFOQI HUQUQINING ASOSIIY PRINSIPLARI	159-168
<i>Zokirov Sherzod</i> O'ZBEK XONLIKLARIDA INSON HUQUQLARINING TA'MINLANISHI: FUQAROLAR MUHOJIRATLARI BILAN ISHLASH VA U BO'YICHA NAZORATNI AMALGA OSHIRISH MISOLIDA	169-176
<i>Жураев Шерзод Юлдашевич</i> ПРИМЕНЕНИЯ ПРИНЦИПА ЗАЩИТЫ ДОВЕРИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА	177-185

<i>Maxamatov Maxmud Maxamataminovich</i> INSON HUQUQLARIDAN CHEKINISHNI XALQARO STANDARTLARDA TARTIBGA SOLINISHI	186-192
<i>Мадаминова Дилафруз, Авазбекова Диёрахон</i> СОПРИКОСНОВЕНИЕ ИСЛАМСКИХ И МЕЖДУНАРОДНЫХ НОРМ В ВОПРОСАХ РОДИТЕЛЬСКИХ ПРАВ И ОПЕКИ НАД РЕБЁНКОМ	193-202
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI	203-209
<i>Мукумов Бобур Мелибой угли</i> ОЦЕНКА РЕГУЛИРУЮЩЕГО ВОЗДЕЙСТВИЯ И ОБЩЕСТВЕННАЯ ЭКСПЕРТИЗА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ГОСУДАРСТВА, БИЗНЕСА И ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА	210-214
<i>Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li</i> FUNDAMENTAL DIFFERENCES AND ANALYSIS OF THE ORGANIZING PRINCIPLES OF ISLAMIC FINANCE AND TRADITIONAL FINANCE. IN THE EXAMPLE OF ISLAMIC BANKS AND TRADITIONAL BANKS	215-222
<i>Yarlakabov Sherali</i> ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA KADRLAR BILAN ISHLASH HUQUQIY ASOSLARINING NAZARIY JIHATLARI	223-228
<i>Боймурзаев Жасурбек Бахтиярович</i> ЗНАЧЕНИЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ОПЕРАТИВНЫХ ПОДРАЗДЕЛЕНИЙ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ С ОБЩЕСТВЕННОСТЬЮ В БОРЬБЕ С НАРКОТИКАМИ И НАПРАВЛЕНИЯ ЕГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ	229-234
<i>Xadjiyev Azizbek Kadambayevich</i> “IJTIMOIY ADOLAT” TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA TARKIBI VA XALQARO QONUNCHILIK Hujjatlarida tutgan o'rni	235-240
<i>Abulxayrov Rustamxon Ibodullayevich</i> PORTLASHDAN KEYIN KO'ZDAN KECHIRISH DAVOMIDA OLINGAN ASHYOVIY DALILLAR BO'YICHA TAYINLANADIGAN PORTLASH-TEKNIK VA PORTLOVCHI MODDALAR EKSPERTIZALARI HAL ETADIGAN MASALALAR	241-249
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhaiyo Tojiyevna</i> IJTIMOIY-GUMANITAR YO'NALISH PEDAGOGLARI KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....	250-256
<i>Menglikulov Xayrulla Aliqulovich</i> OLIY O'QUV YURTIDA JISMONIY TARBIYANING TASHKILY SHAKLLARI	257-263
<i>Jurayeva Balxiya Farxod qizi</i> ROBOTOTEXNIKA DARSLARIDA STEAM – TA'LIM YONDASHUVINING AHAMIYATI	264-270
<i>Nasritdinova Madina Nurullayevna</i> ARTPEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING BADIIY-IJODIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR TAJRIBA-SINOV ISHLARI NATIJALARI TAHLILI VA SAMARADORLIK DARAJASI	271-275
<i>Charshanbiyev Namaz Maxmatmurodovich</i> KASBIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV JARAYONINI RAQAMLI TA'LIM PLATFORMALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH METODIKASI	276-281

Received: 16 June 2025

Accepted: 5 July 2025

Published: 15 July 2025

Article / Original Paper

THE IMPACT OF DEMOGRAPHIC PROCESSES, MIGRATION AND URBANIZATION ON INTERCULTURAL DIALOGUE

Mansurov Abdulaziz Akbarjonovich,
teacher at Gulistan State Pedagogical Institute

Abstract. This article studies the impact of various processes taking place in society, in particular demographic changes, population migration and urbanization on cultures as the main topic. Due to these processes, the transformation of cultures, the formation of the mentality of peoples and the processes of national identity (identity) are analyzed. The impact of demographic processes, population migration and urbanization on cultural relations in different regions is philosophically analyzed. This analysis examines such aspects as changes in intercultural relations, the emergence of new cultural forms and the evolution of traditional cultures. The article also deeply analyzes the issues of global migration flows, the impact of urbanization on the cultural landscape, and the preservation or change of traditional values modern conditions. This analytical approach helps to understand the complex dynamics of intercultural relations and predict future development trends of cultures.

Keywords: demography, population migration, urbanization, culture, mentality, identity, emigrant, ethics, intercultural dialogue, cultural diversity, value.

DEMOGRAFIK JARAYONLAR, MIGRATSIYA VA URBANIZATSIYANING MADANIYATLARARO DIALOGGA TA'SIRI

Mansurov Abdulaziz Akbarjonovich
Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyatda kechayotgan turli jarayonlar, xususan, demografik o'zgarishlar, aholi migratsiyasi va urbanizatsiyaning madaniyatlarga ko'rsatayotgan ta'siri asosiy mavzu sifatida o'rganiladi. Mazkur jarayonlar tufayli madaniyatlarning transformatsiyasi, xalqlarning mentaliteti va milliy o'zligini anglash (identitet) jarayonlari shakllanishi tahlil qilinadi. Madaniy munosabatlarga turli hududlarda yuz berayotgan demografik jarayonlar, aholining ko'chishi va urbanizatsiya kabi omillarning aks etishi falsafiy tahlil qilinadi. Ushbu tahlil orqali madaniyatlararo munosabatlardagi o'zgarishlar, yangi madaniy shakllarning paydo bo'lishi va an'anaviy madaniyatlarning evolyutsiyasi kabi jihatlar ko'rib chiqiladi. Maqolada, shuningdek, global migratsiya oqimlari, shaharlashuvning madaniy landshaftga ta'siri, an'anaviy qadriyatlarning zamonaviy sharoitda saqlanib qolinishi yoki o'zgarishi masalalari ham chuqur tahlil qilinadi. Ushbu tahliliy yondashuv madaniyatlararo munosabatlarning murakkab dinamikasini tushunishga va madaniyatlarning kelajakdagi rivojlanish tendensiyalarini bashorat qilishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: demografiya, aholi migratsiyasi, urbanizatsiya, madaniyat, mentalitet, identitet, emigrant, axloq, madaniyatlararo dialog, madaniy xilma-xillik, qadriyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N17>

Kirish

Insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u doimiy takomillashib borganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Ya'ni, insoniyatning tarixiy taraqqiyoti qaysidir demografik o'zgarishlar bilan birga kechganligini kuzatish mumkin. Demografik o'zgarishlar – aholi sonining o'sishi yoki kamayishi, yosh tarkibining o'zgarishi, tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlaridagi tendensiyalar

– madaniyatlarga bevosita taʼsir etadi. Aholi tarkibidagi oʻzgarishlar madaniy qadriyatlar, urf-odatlar, anʼanalar va turmush tarziga yangi unsurlarni olib kirishi mumkin.

Migratsiya – odamlarning bir joydan boshqa joyga koʻchishi – madaniyatlararo dialogning eng muhim omillaridan biridir. Migranlar oʻzlari bilan yangi gʻoyalar, tillar, dinlar va madaniy amaliyotlarni olib keladi, bu esa mahalliy madaniyatlar bilan oʻzaro taʼsirlashib, yangi madaniy shakllarning paydo boʻlishiga olib keladi.

Urbanizatsiya – aholining qishloq joylardan shaharlarga koʻchishi – madaniyatlarning konsentratsiyasi va integratsiyasiga olib keladi. Shaharlar turli madaniyatlarning uchrashuv joyi boʻlib, bu yerda madaniyatlararo dialog yanada faollashadi, yangi madaniy tendensiyalar va submadaniyatlar paydo boʻladi.

Madaniyat inson yoki jamiyatning faoliyati natijasi boʻlib, u doimiy takomillashib boruvchi hodisa hisoblanadi. Madaniyatning takomili oʻzaro munosabatlar jarayonida sodir boʻlib, xalqlar mentalitetining boyishiga va milliy oʻzlikning shakllanishiga zamin yaratadi. Madaniyatlararo dialog – global dunyoning ajralmas qismi boʻlib, turli xalqlar va etnik guruhlar oʻrtasida oʻzaro tushunish, hurmat va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Biroq, madaniyatlararo munosabatlar doimo bir xil boʻlib qolmaydi; ular jamiyatda roʻy berayotgan dinamik jarayonlar taʼsirida oʻzgarib, rivojlanib boradi. Demografik oʻzgarishlar, migratsiya va urbanizatsiya shular jumlasidandir. Ushbu jarayonlar madaniyatlarning shakllanishi, oʻzgarishi va oʻzaro taʼsiriga sezilarli taʼsir koʻrsatadi.

Metodlar

Sharq mutafakkirlari Nosir Xisrav, Abdurazzoq Samarqandiy al-Idrisiy, Abul Fido, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy oʻz risolalarida fuqarolarning turli oʻlkalar va xalqlarga koʻchib oʻtishi va bu muayyan maʼnoda madaniyatlar dialogi sifatida rivojlanganligini asoslaganlar. Xususan, Abu Rayhon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, Z.Boburning “Boburnoma”, Furqatning “Sayohatnoma”, Gʻiyosiddin Naqqosh “Kundaliklar” asarlarida xalqlarning ijtimoiy, madaniy hayotini, urf-odatlari, dunyoqarashiga mehnat qilish uchun koʻchib kelgan xalqlarning madaniyatiga taʼsiri ochib berilgan.

Bundan tashqari, 1885-1889-yillardagi tadqiqotlarida E.Ravenshteyn jarayonni falsafiy jihatdan oʻrganishni boshlab berdi. Migratsiyaning koʻrinishlari, qonunlarini sanab oʻtib, uni keltirib chiqaruvchi sabablarga ham alohida eʼtibor beradi [1; 3-5-b]. Uning tadqiqotlari bugungi kungacha mazkur mavzudagi barcha ilmiy izlanishlar uchun asos sifatida foydalanib kelinmoqda.

Mamlakatimiz ilmiy doirasida ham soʻnggi yillarda bir qancha tadqiqotlar orqali migratsiyaning jamiyat taraqqiyotiga taʼsiri va ahamiyatini ochib berishga harakat qilinmoqda. S.Alimov “migratsiya axloqi va uning siyosiy-maʼmuriy tizimlar bilan taʼsirlashuvi, migrantlarning ijtimoiy muhitga adaptatsiyasi muammolarining axloqiy xususiyatlari, migratsiyaning emigrant davlat etosferasiga taʼsirining oʻziga xos jihatlari falsafiy jihatdan tadqiq etadi” [2; 12-b.]. S.Avazov “yuksak turmush darajasi mehnat migratsiyasi koʻlamini optimallashtiruvchi asosiy omil sifatida tadqiq etilib, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning mehnat migratsiyasiga taʼsiri ochib berilgan” [3; 14-b.]. D.Axmedova “Xotin-qizlar mehnat migratsiyasi jarayonlarining sotsiologik tahlili yoritilib, unda dissertant tomonidan 2021-yil iyun, iyul va avgust oylarida oʻtkazilgan sotsiologik tadqiqot tahlili yoritilgan” [4; 15-b.]. Oʻzbekistondagi migratsion munosabatlardan kelib chiqib jarayonni

imkon qadar tartibga solish, kamaytirib borish, chiqib ketuvchilar uchun ham alohida madaniy-axloqiy talablar belgilash shart hisoblanadi.

Natijalar

Xalqlar o'rtasidagi munosabatlar mavjud ekan, madaniy o'zgarishlar va assimilyatsiya jarayonlari uzluksiz davom etadi. Demografik jarayonlarning rivojlanishi jamiyatga ham turli imkoniyatlar, ham muammolarni olib keladi. Tug'ilish darajasi, kasalliklar, ta'lim tizimi, mehnat bozori va oilaviy munosabatlardagi o'zgarishlar migratsiya vaziyatining kengayishiga asos bo'ladi. Shu bilan birga, aholining yanada qulay hayot sharoitlarini izlab yo'lga chiqishi va urbanizatsiyaning tezlashuvi kabi jarayonlarga ham turtki beradi. Bunday sharoitda madaniyatlararo muloqotning ahamiyati ortadi, ammo madaniy o'zlikni saqlash, integratsiya masalalari ham dolzarblashadi.

Aholi sonining o'sishi yoki kamayishi, yosh tarkibidagi o'zgarishlar kabi demografik tendensiyalar madaniy qadriyatlarning transformatsiyasiga, urf-odatlarining evolyutsiyasiga va an'anaviy madaniy amaliyotlarning zamonaviylashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Yosh avlodning shakllanayotgan yangi qadriyatlari va qarashlari madaniy landshaftni qayta shakllantirib, kelajak madaniyatini belgilaydi. Qaysi bir jamiyatda ichki muammolar mavjud bo'lib, ularning yechimi shu jamiyatning o'zida topilmasa, u doimiy ravishda yechim taklif etayotgan tomonlardan, ko'pincha tashqi kuchlardan yordam izlashga majbur bo'ladi. Demografik jarayonlarga ta'sir etuvchi omillar ham turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarishi bilan birga, madaniy ta'sirlarga berilish xavfini oshiradi. Bu esa milliy o'zlikni saqlash, madaniy merosni asrash va o'ziga xosligini yo'qotmaslik kabi dolzarb masalalarni kun tartibiga qo'yadi. Shunday ekan, demografik siyosatni yuritishda nafaqat iqtisodiy omillarni, balki madaniy omillarni ham hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Migratsiya oqimlari madaniyatlararo munosabatlarni faollashtiradi, yangi madaniy elementlarni olib kiradi va mahalliy madaniyatlar bilan aralashish natijasida gibridd madaniyatlarning paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Migrantlar o'z tillari, dinlari, urf-odatlari va an'analari bilan birga kelib, mahalliy aholi bilan o'zaro ta'sirlashadi, bu esa madaniy xilma-xillikning oshishiga va yangi madaniy shakllarning yaratilishiga olib keladi. Shu bilan birga, madaniy to'qnashuvlar va integratsiya muammolari ham yuzaga kelishi ehtimoldan holi emas. Migrantlar o'z madaniyati va qadriyatlarini olib kelgani sababli, qabul qiluvchi jamiyatda o'zaro tushunmovchiliklar va qarama-qarshiliklar kelib chiqishi mumkin. Biroq, ayni paytda, migrantlar mahalliy madaniyatga yangi unsurlarni olib kirib, uning boyishiga va yangilanishiga ham sabab bo'ladilar. Shunday ekan, integratsiya jarayonini to'g'ri tashkil etish, madaniyatlararo muloqotni rag'batlantirish va tolerantlikni oshirish madaniy to'qnashuvlarni minimallashtirish va madaniy xilma-xillikni ta'minlash uchun muhimdir.

Urbanizatsiya madaniyatlarning konsentratsiyasiga va o'zaro ta'siriga katta hissa qo'shadi. Shaharlar madaniy xilma-xillikni o'zida mujassam etgan markazlarga aylanadi, bu yerda turli etnik guruhlar, millatlar va submadaniyatlar birga yashab, o'zaro ta'sirlashadi. Shahar muhiti madaniy innovatsiyalarni rag'batlantiradi, yangi madaniy tendensiyalarning paydo bo'lishiga turtki beradi va madaniyatlararo dialog uchun qulay sharoit yaratadi. Biroq, urbanizatsiya jarayoni an'anaviy madaniy qadriyatlarning asta-sekin yo'qolishiga va madaniy o'zlikni saqlash bilan bog'liq muammolarning yuzaga kelishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Shaharlarga nafaqat yuksak madaniyat vakillari, balki madaniy qoloq qatlamlarning ham kirib kelishi natijasida ommaviy madaniyat ustuvorlik qila boshlaydi. Bu o'z navbatida, atrof

hududlardagi aholining shaharlarga intilishini kuchaytiradi va “qorishma” madaniyatning tarqalishiga olib keladi. Shu bilan birga, shaharlarning infratuzilmaviy jozibadorligi madaniy jozibadorlikka aylanib, ayrim migrantlarga nisbatan ehtiyojni yuzaga keltiradi. Bunday sharoitda, shaharlarni barqaror rivojlantirish, madaniy merosni asrab-avaylash va madaniy xilma-xillikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi [5; 3-4-b].

Bundan tashqari, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, axborot texnologiyalari va globalizatsiya madaniyatlararo munosabatlarga ta'sirini kuchaytiradi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar turli madaniyatlarning vakillari o'rtasida aloqa o'rnatish va ma'lumot almashish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Biroq, bu jarayon madaniy gegemonlik va madaniy assimilyatsiya xavfini ham tug'diradi.

Muhokama

Madaniyatlararo dialogning faollashuvi, madaniy xilma-xillikning ortishi va yangi madaniy shakllarning paydo bo'lishi kabi ijobiy tendensiyalar bilan bir qatorda, an'anaviy qadriyatlarning yo'qolishi, madaniy to'qnashuvlar va assimilyatsiya xavfi kabi salbiy oqibatlar ham mavjud.

Tadqiqotdan olingan natijalar migratsiya, urbanizatsiya va madaniyatlararo munosabatlar bo'yicha mavjud nazariyalar bilan mos keladi. Xususan, migratsiya oqimlari madaniy xilma-xillikni oshirishi va yangi madaniy shakllarning paydo bo'lishiga olib kelishi, urbanizatsiya jarayoni esa madaniyatlarning konsentratsiyasiga va o'zaro ta'siriga yordam berishi ko'plab tadqiqotlarda tasdiqlangan [6; 3-4-b.].

Shuningdek, tadqiqot natijalari madaniy siyosatni ishlab chiqish va madaniyatlararo munosabatlarni boshqarishda e'tiborga olinishi zarur bo'lgan bir qator muhim masalalarni ko'rsatib berdi:

- Madaniy xilma-xillikni saqlash: Madaniy o'zlikni asrash va etnik guruhlar o'rtasida madaniy muloqotni rag'batlantirish madaniy siyosatning ustuvor vazifalaridan biri bo'lishi kerak. Hukumat va nodavlat tashkilotlar madaniy merosni asrash, milliy urf-odatlarini qo'llab-quvvatlash va madaniyatlararo tadbirlarni tashkil etish orqali bu maqsadga erishishlari mumkin.

- Madaniy integratsiyani qo'llab-quvvatlash: Migrantlarning qabul qiluvchi jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi madaniyatlararo munosabatlarning barqaror rivojlanishi uchun muhim shartdir. Integratsiya jarayonini osonlashtirish uchun til kurslari, madaniy moslashuv dasturlari va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlari yaratilishi zarur.

- Axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanish: Internet va ijtimoiy tarmoqlarning madaniy ta'sirini minimallashtirish va madaniy gegemonlik xavfini kamaytirish uchun media savodxonligini oshirish, mahalliy kontentni qo'llab-quvvatlash va madaniy xilma-xillikni targ'ib qilish zarur.

- Ta'limning roli: Madaniyatlararo tolerantlikni shakllantirish va madaniy xilma-xillikka hurmatni oshirish ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri bo'lishi kerak. Ta'lim dasturlariga madaniyatlararo muloqot, inson huquqlari va madaniy merosni o'rganish bo'yicha mavzular kiritilishi lozim.

Ushbu tadqiqotning cheklangan jihatlari ham mavjud. Xususan, tadqiqot faqatgina ma'lum bir mintaqadagi madaniy munosabatlarni o'rganish bilan cheklangan. Kelajakda madaniy munosabatlarning global tendensiyalarini o'rganishga qaratilgan keng qamrovli

tadqiqotlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, tadqiqotda ishlatilgan ma'lumotlar to'plamining hajmi ham cheklangan bo'lishi mumkin.

Demografik jarayonlar, migratsiya va urbanizatsiya madaniyatlararo munosabatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayonlarning murakkab dinamikasini hisobga olish, madaniy xilma-xillikni saqlash va jamiyatda madaniy barqarorlikni ta'minlash madaniy siyosatni ishlab chiqishda va madaniyatlararo munosabatlarni boshqarishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Ushbu izlanish natijalari shuni ko'rsatdiki, demografik jarayonlar, migratsiya va urbanizatsiya madaniyatlararo dialogga murakkab va ko'p qirrali ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayonlar madaniy xilma-xillikning oshishiga, madaniyatlararo muloqotning faollashuviga va yangi madaniy shakllarning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Biroq, ular an'anaviy qadriyatlarning yo'qolishi, madaniy to'qnashuvlar va assimilyatsiya xavfini ham keltirib chiqarishi mumkin.

Madaniy siyosatni ishlab chiqishda va madaniyatlararo munosabatlarni boshqarishda ushbu jarayonlarning ta'sirini hisobga olish muhimdir. Madaniy xilma-xillikni saqlash, madaniy integratsiyani qo'llab-quvvatlash, axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanish va ta'lim orqali madaniyatlararo tolerantlikni oshirish zarur.

Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu mavzuni yanada chuqur o'rganishga qaratilishi kerak. Xususan, global migratsiya oqimlarining madaniy ta'sirini, shaharlashuvning madaniy landshaftga ta'sirini va an'anaviy qadriyatlarning zamonaviy sharoitda saqlanib qolinishi yoki o'zgarishini o'rganish muhimdir. Demografik jarayonlar, migratsiya va urbanizatsiya madaniyatlararo dialogga ta'sirini tushunish madaniy siyosatni ishlab chiqish va jamiyatda madaniy barqarorlikni ta'minlash uchun zarurdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ravenstein E.G. The laws of migration // Journal of Statistical Society of London.Vol .48, № 2 .London, (June 1885). – P. 167-235.
2. Алимов С.К. Аҳоли миграцияси ижтимоий-ахлоқий муҳит трансформацияси омили сифатида. – Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент.: 2022. - Б. 49.
3. Avazov S.E. Mehnat migratsiyasi: mazmun va shakl, sabab va oqibat dialektikasi. – Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro.: 2024. - B. 49.
4. Axmedova D.O. O'zbekistonda xotin-qizlar mehnat migratsiyasining ijtimoiy omillari. – Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent.: 2023. - B. 55.
5. Akbarjonovich, M. A. (2023). Historical Analysis of Population Migration. International Journal on Orange Technologies, 5(4), 68-70.
6. MANSUROV, A. (2024). Development stages of migration from a historical point of view. «ACTA NUUZ», 1(1.1), 108-111.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).